shuningdek, kasbga yo‘naltirish choralari samarasizligidan dalolat beradi. Olingan mutaxassislikning bozor talabiga yaroqsizligi yosh mutaxassislarning ish bilan ta‘minlanishini qiyinlashtirmoqda. Kasb-hunar ta‘limi va malakasi asosida mehnat resurslariga talab va taklifning nomutanosibligi mehnat bozorida kadrlarning tarmoqviy nomuvofiqligini va mamlakatda bandlik muammosini kuchaytirmoqda.

Ma‘lumki, insonning jismoniy va intellektual rivojlanishi, uning sog‘lig‘i, kasbiy tayyorgarligi ovqatlanish hajmi va tuzilishiga, turmush sharoitiga, ta‘lim xizmatlarini iste‘mol qilish hajmi va tarkibiga bog‘liq bo‘lib, ularning manbai daromadlari hisoblanadi.

O‘zbekistonda 2022-yilda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan real jami daromad oyiga 1 331 607,17 so‘mni tashkil etdi³⁴, bu kuniga 3,8 dollarni tashkil etadi³⁵, BMT tomonidan hisoblangan “Faqat kambag‘allar” xalqaro kambag‘allik chegarasi ko‘rsatkichi kuniga 3,1 AQSh dollar, o‘ta kambag‘allik kuniga 1,9 AQSh dollar etib belgilandi³⁶. Shu bilan birga, mamlakatimizning turli hududlarida aholining bir sutkalik real daromadi 2,8 AQSh dollarni tashkil etadi (Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Namangan viloyatlari – 4-jadvalga qarang).

Toshkent shahri, Navoiy viloyatida daromadlar boshqa hududlardagi daromadlardan deyarli ikki barobar ko‘p. Namangan va Surxondaryo viloyatlari, shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasi doimiy ravishda oxirgi o‘rinlarni egallab, aholi jon boshiga real daromadlar respublika bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichdan pastdir.

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma‘lumotlariga ko‘ra, 2022-yil yakuni bo‘yicha soliq to‘lovchilar soni 5,018 million kishini tashkil qildi. 2022-yilda soliq to‘lovchilarning katta ulushi 1 million so‘mgacha (28 foiz), ya‘ni deyarli eng kam oylik ish haqi miqdorida, 25,2 foizi 2 million so‘mdan 4 million so‘mgacha, 9,3 foizi 4 million so‘mdan 5,5 million so‘mgacha, 12,4 foizi – 5,5 million yoki undan ko‘p ish haqi olgan³⁷.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma‘lumotlariga ko‘ra³⁸, 2022-yilning birinchi choragida O‘zbekistonda o‘rtacha oylik ish haqi 3,42 million so‘mni tashkil qildi. Soliq qo‘mitasi ma‘lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda o‘rtacha ish haqi darajasi 2,78 million so‘mni tashkil etadi, bu statistika agentligi ma‘lumotlaridan pastdir, chunki statistika agentligining statistik ma‘lumotlarida qishloq xo‘jaligi va kichik biznes subyektlari hisobga olinmagan³⁹.

³⁴ Muallif tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligini www.stat.uz ma‘lumotlari asosida 2022-yil uchun “Aholi jon boshiga real umumiy daromadlar, ming so‘m” ma‘lumotlari asosida hisoblangan.

³⁵ 20.12.22-yil holatiga dollarning so‘mga nisbatan kursi asosida hisoblangan. // www.Bank.uz

³⁶ Kambag‘allikni o‘lchash bo‘yicha qo‘llanma. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa iqtisodiy komissiyasi, Nyu-York va Jeneva, 2017-yil // https://unece.org/fileadmin/DAM/stats/publications/2018/ECECESSTAT20174_ru.pdf

³⁷ O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining “2022-yilgi davlat byudjeti daromadlari ijrosining dastlabki yakunlari” ma‘lumotlari https://www.mf.uz/media/gugb/20_02_2023/obzor_ru.pdf

³⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma‘lumotlari // <https://stat.uz/>

³⁹ Davlat soliq qo‘mitasi matbuot xizmati ma‘lumotlari <https://t.me/soliqnews/8810>

O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha real yalpi daromadlar⁴⁰

Mintaqalar	Real yalpi daromad oyiga 2022-yil, so'm	Kuniga 2022-yil uchun real yalpi daromad, AQSh dollari
O'zbekiston Respublikasi	1 331 607,17	3,79
Qoraqalpog'iston Respublikasi	989 121,80	2,81
Andijon	1 177 330,90	3,35
Buxoro	1 597 911,40	4,55
Jizzax	1 139 345,23	3,24
Qashqadaryo	1 100 335,17	3,13
Navoiy	2 045 324,23	5,82
Namangan	1 039 662,52	2,96
Samarqand	1 166 019,53	3,32
Surxondaryo	1 089 991,37	3,10
Sirdaryo	1 130 653,73	3,22
Toshkent	1 357 030,57	3,86
Farg'ona	1 013 670,40	2,88
Xorazm	1 468 124,45	4,18
Toshkent shahri	2 794 512,82	7,95

Ta'lim sohasida esa 2 million 520 ming so'mga yetdi. Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida ham xuddi shunday holat bo'lib, birinchi chorakda o'rtacha ish haqi 2,33 million so'mni tashkil etdi. O'rtacha oylik ish haqining eng yuqori darajasi bank, sug'urta, lizing va kredit-vositachilik sohalarida kuzatildi – 8,42 million so'm. Keyingi o'rinda axborot va aloqa – 6,5 million so'm (5-jadvalga qarang).

O'zbekistonda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha band bo'lganlar soni hisobga olinsa, aholining atigi 1 foizi eng yuqori maosh oladi (axborot-kommunikatsiya, moliya va sug'urta faoliyati), 50 %dan ortig'i esa kam ta'minlangan ishlarda band (qurilish – 10 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi – 26 %, sog'liqni saqlash – 5 %, ta'lim – 9 %) ekanligini kuzatish mumkin (5-jadval).

O'zbekistonda 2022-yilda eng kam pensiya miqdori eng kam ish haqidan past – 633 ming so'm bo'lgan⁴¹. O'zbekiston Respublikasi bandlik va kambag' allikni qisqartirish vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yilda 6,1 million fuqaro rasman, 5,9 million nafar norasmiy mehnat faoliyati bilan shug'ullangan, 1,4 million fuqaro ish bilan ta'minlanishga muhtoj bo'lgan⁴². Afsuski, viloyatlar, shaharlar va

⁴⁰Muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining www.stat.uz ma'lumotlari asosida 2022-yil uchun "Ahol jon boshiga real umumiy daromadlar, ming so'm" ma'lumotlari asosida hisoblangan.

⁴¹ Norma.uz sayti ma'lumotlari - Axborot-huquqiy portal

https://www.norma.uz/poleznaya_informaciya/dinamika_izmeneniya_minimalnogo_razmera_zarabotnoy_platy//

⁴² O'zbekiston Respublikasi bandlik va kambag' allikni qisqartirish vazirligi ma'lumotlari // <https://mehnat.uz/ru/>

qishloqlar kesimida ma'lumotlar berilmagan. Agar norasmiy ish bilan band va ishsizlar hisobga olinsa, pensionerlarning 60 %dan ortig'i eng kam pensiya oladi, degan xulosaga kelish mumkin.

5-jadval

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha nominal hisoblangan o'rtacha oylik ish haqini xodimlarning ulushi bilan qiyoslash⁴³

Iqtisodiy faoliyat turlari nomi	2022-yilda nominal hisoblangan o'rtacha oylik ish haqi	2021-yilda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha band bo'lganlar ulushi
O'rtacha oylik ish haqi (qishloq xo'jaligi va kichik biznes subyektlari bundan mustasno)	3 426 800 сум	
Sog'liqni saqlash	2 329 600 сум	5%
Sanoat	4 466 400 сум	14%
Qurilish	4 154 000 сум	10%
Savdo	3 515 600 сум	11%
Tashish va saqlash	4 559 200 сум	5%
Ta'lim	2 517 000 сум	9%
Axborot va aloqa	6 505 100 сум	0,40%
Bank, sug'urta, lizing faoliyati	8 423 500 сум	0,50%
Qishloq xo'jaligi	1 665 698 сум (за 2021 год)	26%
Boshqa faoliyat turlari		20%

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasiga ko'ra, "Qonunda belgilangan pensiyalar, nafaqalar va boshqa turdagi ijtimoiy yordamning miqdorlari rasman belgilangan eng kam iste'mol xarajatlaridan oz bo'lishi mumkin emas."⁴⁴ Keksalik bo'yicha eng kam pensiyaning hozirgi hajmi BMTning xalqaro kambag'allik chegarasiga ham to'g'ri kelmaydi.

Turmush sifatini tavsiflovchi muhim mezonlardan biri iste'mol xarajatlari tarkibi, jumladan, oziq-ovqatga sarflanuvchi xarajatlar ulushi hisoblanadi. Mutaxassislar uy xo'jaliklarining turmush darajasini baholashga imkon beruvchi oxirgi ko'rsatkichning chegara qiymatlarini aniqladilar: 20 % – yuqori turmush darajasi; 25 %gacha – o'rtacha turmush darajasi; 30 %gacha – xotirjam yashash; 35 %gacha – qoniqarli mavjudlik; 40 %gacha – qoniqarsiz mavjudlik; 45 %gacha – qandaydir tarzda jismoniy salomatlikni saqlashga imkon beruvchi mavjudlik; 50 % dan ortiq – ochlik yoqasidagi mavjudlik⁴⁵.

6-jadvalga ko'ra, Germaniya, Fransiya, Finlyandiya (va ko'pchilik Yevropa Ittifoqi mamlakatlari) oziq-ovqatga umumiy xarajatlarining 10-13 %ini sarflaydi.

⁴³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan www.stat.uz

⁴⁴ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2023 y. <https://lex.uz/docs/-6445145?otherlang=1>

⁴⁵ Чердынцев Г. М. Личные финансы, структура доходов и расходов населения на региональном уровне. // Вестник Омского университета. Серия «Экономика». – 2008. – № 4. – С.143–145.

Taxminan 22-25 % madaniy rivojlanish, dam olish, restoran va mehmonxonalar, ta'lim va sog'liqni saqlashga sarflanadi. Bu mamlakatlarda ta'lim (boshlang'ich, o'rta va oliy) bepul bo'lgani uchun byudjetning 0,5-1 %i ta'limga sarflanadi. Rossiyadagi uy xo'jaliklari byudjetning deyarli yarmini oziq-ovqat va kommunal xizmatlarga – 45 %, dam olish va madaniyatga 5 %, sog'liqni saqlashga atigi 4 % va ta'limga 1 % sarflaydi.

O'zbekiston Respublikasida 2021-yilda aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan xarajatlari 55,6 foizni tashkil etdi. Prezident bu raqamlarni videosektor yig'ilishida ham ma'lum qildi⁴⁶.

Amerika Qo'shma Shtatlari singarii kapitalistik davlat va ijtimoiy yo'naltirilgan O'zbekiston Respublikasi qiyoslansa, AQSh uy xo'jaliklari xarajatlari tarkibida tibbiy xarajatlar 8,4 foizni, shuningdek, O'zbekistonda 8,7 foizni bepul tibbiy yordam ko'rsatish bilan bog'liqligini ko'rish mumkin.

6-jadval

Uy xo'jaliklarining kategoriyalari bo'yicha xarajatlari⁴⁷

Xarajatlar turlari	Germaniya	Fransiya	Finlandiya	Rossiya	AQSh	O'zbekiston
Oziq-ovqat va alkogolsiz ichimliklar	10,8%	13,1%	11,4%	34%	12%	55,6%
Kommunal xarajatlar	24%	26,2%	28,8%	11%	17%	5,2%
Transport	14,1%	14%	11,7%	14%	16%	4,5%
Boshqa tovarlar va xizmatlar	12,5%	12,3%	10%	7%	-	10,9%
Dam olish va madaniyat	10,9%	7,9%	10,1%	5%	5% o'yin-kulgi	-
Mebel va maishiy texnika	6,4%	4,6%	4,7%	5%	3,3%	2,1%
Restoranlar va mehmonxonalar	5,5%	7,7%	6,8%	3%	5 % faqat tashqarida ovqatlanish	1,6% faqat tashqarida ovqatlanish
Salomatlik	5,2%	4%	4,9%	4%	8,4%	8,7%
Kiyim va poyabzal	4,3%	3,5%	4,1%	8%	3%	7%
Spirтли ichimliklar va tamaki	3,2%	3,8%	4,8%	3%	-	0,7%
Aloqa	2,2%	2,3%	2,4%	5%	-	1,7%
Ta'lim	0,9%	0,5%	0,4%	1%	2,3%	2%

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi Jahon bankining texnik ko'magi asosida iste'mol xarajatlarning eng kam miqdorini ishlab chiqildi va hisoblab chiqildi, bu har bir kishi uchun oyiga 498 ming so'mni tashkil etadi⁴⁸.

⁴⁶ 18.07.2022-yildagi videokonferensiya yig'ilishi // <https://uznews.uz/posts/57217>

// https://t.me/Press_Secretary_Uz/2126 //

⁴⁷ Muallif tomonidan statistik ma'lumotlar asosida tuzilgan: 2019 yil uchun Eurostat // <https://ec.europa.eu> ;

Rossiya Federatsiyasi Federal Davlat statistika xizmati 2020 yil uchun // <https://rosstat.gov.ru> ;

AQSh Statistika Byurosi 2020 // U.S. BUREAU OF LABOR STATISTICS // <https://www.bls.gov> ;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi 2021-yil uchun. www.stat.uz

⁴⁸ Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi "Eng kam iste'mol xarajatlari tannarxini hisoblash tartibini kuchga kiritish to'g'risida"gi 544-son qarori. // <https://lex.uz/uz/docs/5609251>

Minimal iste'mol xarajatlari – real qiymatlarni va iste'mol tarkibini o'rganish asosida uy xo'jaliklarining sog'lom hayoti uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlari va xizmatlarga minimal xarajatlarning taxminiy qiymati⁴⁹.

Agar kambag'allik chegarasida bo'lgan shaxs kuniga kamida 1,90 miqdorida tovar va xizmatlar iste'mol qiladi deb hisoblansa, 30 kun davomida miqdori bo'yicha hisoblanganda 498 ming so'mga nisbatan 646 380 so'm oladi⁵⁰.

Dissertatsiya tadqiqotida iqtisodiy tizimda inson kapitalining faoliyatida gender jihatiga alohida e'tibor qaratilgan. Gender yondashuvidan foydalanish inson kapitali va uning mehnat faolligini shakllantirishda ayollarga nisbatan davlatning rolini oshirish bo'yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi.

Jahon bankining "Ayollar, biznes va huquq" indeksida O'zbekiston 2020-yilda 190 mamlakat ichida atigi 134-o'rinni egalladi⁵¹. 2020-yilda mehnatga layoqatli yoshdagi ayollarning atigi 66,6 foizi, erkaklar o'rtasida esa 80,5 foizi iqtisodiy faol bo'lgan⁵². Ijtimoiy stereotiplar, diskriminatsiya, oliy ta'lim olish imkoniyatining pastligi, bolalarga qarashli infratuzilma mavjud emasligi ayollar bandligini kengaytirish yo'lidagi asosiy to'siqlar hisoblanadi.

Amaldagi onalikni himoya qilish va ota-ona ta'tillari tizimi ish beruvchilarga reproduktiv yoshdagi ayollarni ishga olish imkonini bermaydi.

O'zbekistonda 2022-yil 1-sentabrdan boshlab ish beruvchilardan yuklamaning bir qismini olib tashlash va ayollar bandligini oshirishga ko'maklashish maqsadida xususiy sektorda ishlayotgan ayollarga tug'ruq va tug'ish nafaqalari miqdorining bir qismini to'lash boshlandi⁵³. To'lovlar miqdori 1 million 990 ming so'mni tashkil etadi, bir vaqtning o'zida to'rt oy davomida to'lanadi. Ish beruvchi nafaqaning qolgan qismini Mehnat kodeksiga muvofiq to'laydi. Nafaqa miqdori eng kam iste'mol xarajatlari miqdoridan kelib chiqqan holda hisoblanadi – bir kishi uchun oyiga 498 000 so'm. Shu summadan kelib chiqib, savol tug'iladi: nega ikki barobar ko'paytirilmaydi – ona va bolaga oyiga $498\ 000\ \text{so'm} \cdot 2 = 996\ 000\ \text{so'm}$, chunki ayol bu vaqtda ishsiz va daromadsiz qoladi.

Norasmiy sektordagi ayollarning katta qismi 57 %ni tashkil etadi⁵⁴, ular homiladorlik va tug'ish nafaqalarini olmaydilar.

Muallifning fikricha, hukumat nafaqa miqdorini qayta ko'rib chiqishi, shuningdek, gender tengligini ta'minlash uchun uni barcha homilador ayollarga, hech bo'lmaganda boshlang'ich uchun 6 oy muddatga to'lashni boshlashi kerak. Barcha bolali ayollar uchun 6 soatlik ish kunini joriy etish kerak: bolalarining yoshidan qat'i nazar, soat 10:00 dan 17:00 gacha. Chunki ayollar asosan uy yumushlari va bolalar tarbiyasi bilan shug'ullanadilar.

O'zbekiston aholisining yarmi yoki 17 milliondan ortiq aholisi ayollar va qizlardir. Bu raqam Niderlandiya yoki Ekvador singari mamlakatlar aholisi bilan

⁴⁹ Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi "Eng kam iste'mol xarajatlari tannarxini hisoblash tartibini kuchga kiritish to'g'risida"gi 544-son qarori. // <https://lex.uz/uz/docs/5609251>

⁵⁰ 20.12.22-yilda dollarning so'mga nisbatan kursidan kelib chiqib hisoblangan $1\$ = 11340\ \text{so'm}$ // www.cbu.uz

⁵¹ <http://nsdg.stat.uz/goal/13> - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

⁵² <https://nsdg.stat.uz/goal/11> - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

⁵³ Ayollarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha keng ko'lamlı chora-tadbirlar belgilandi // <https://president.uz/ru/lists/view/5014//01.03.2022-y.da> chop etilgan

⁵⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati https://t.me/Press_Secretary_Uz/1668

solishtirish mumkin. Ular mamlakat iqtisodiy yuksalishi jarayonida ulkan bunyodkorlik vazivasini bajarishga qodir. Buning uchun xotin-qizlarning ijtimoiy, iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy hayotdagi ishtiroki yo‘lidagi mavjud to‘siqlarni bartaraf etish zarur. “Bugungi farovon hayotimiz, yorug‘ kelajagimiz xotin-qizlarga bog‘liq. Xalqimiz bizdan rozi bo‘lsin desak, avvalo, onaxonlarimizga, opa-singillarimizga munosib turmush sharoitini yaratishimiz kerak. Ona baxtli bo‘lsa, oila baxtlidir, oila baxtli bo‘lsa, jamiyat baxtlidir”⁵⁵.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekiston Respublikasida inson kapitalini rivojlantirish konsepsiyasi”** uchinchi bobida inson kapitalini rivojlantirishning institutsional asoslarini takomillashtirish va uning iqtisodiy tizimda faoliyat ko‘rsatish samaradorligini oshirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Har bir davlat ta‘limga investisiyadan ko‘proq daromad olishga qaratilgan siyosatni doimiy ravishda olib borishi zarur. Inson kapitalini rivojlantirish, uning markaziy bo‘g‘ini sifatida universitet va oliy o‘quv yurtidan keyingi kasbiy ta‘limni takomillashtirish hozirgi kunda inson va mehnat salohiyatidan past darajada foydalanilayotgan O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy oqsashini bartaraf etish imkoniyatlarini yoritib beradi.

Ma‘lumki, oliy ta‘lim tizimi, iqtisodiyot tarmoqlari, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, ilmiy-pedagogik kadrlar uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlashga qaratilgan. Demak, oliy ta‘lim tizimi xalq xo‘jaligining yuqorida qayd etilgan sohalari talablariga javob berishi kerak. Shu munosabat bilan muallif oliy ta‘lim tizimini mehnat resurslariga ehtiyojdan kelib chiqib takomillashtirishni taklif qiladi.

Avvalo, yalpi mehnat bozorining (jumladan, band bo‘lganlar va ishsizlar) hozirgi holatini kasbi, mutaxassisligi va malakasi bo‘yicha, aholining yosh guruhlari nuqtai nazaridan tahlil qilish kerak.

Shundan so‘ng milliy iqtisodiyotning joriy tarkibi: iqtisodiyotning real sektori tarmoq va korxonalari; davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari tizimlari; fundamental va amaliy fanlar, shuningdek, ta‘lim tizimi – kasb, mutaxassislik va malaka bo‘yicha mehnat resurslariga ehtiyojni aniqlash maqsadida tahlil qilinadi. Shu bilan birga, bugungi va istiqboldagi ehtiyojlar hozirgi rivojlanish tendentsiyalari, eng muhimi, milliy iqtisodiyot tuzilmasini takomillashtirish va yanada rivojlantirish bo‘yicha o‘rta muddatli va uzoq muddatli vazifalarni hisobga olgan holda belgilanadi.

Shundan so‘ng oliy ta‘lim tuzilmasining kasb, mutaxassislik va malaka bo‘yicha yalpi mehnat bozorini to‘ldirish va yangilash ehtiyojlariga muvofiqligini aniqlash mumkin, bu esa, o‘z navbatida, oliy ta‘limni rivojlantirish parametrlarini aniqlash imkonini beradi.

Yuqoridagi bosqichma-bosqich tahlilni amalga oshirish pirovardida respublikamizda faoliyat yuritayotgan oliy o‘quv yurtlarining soni va ixtisoslashuviga ehtiyojni baholash va umuman, oliy ta‘lim kadrlarini tayyorlash bo‘yicha davlat buyurtmasini aniqlash imkonini beradi. O‘z navbatida, bu

⁵⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev– “Ayollarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar belgilandi” // [https://president.uz/ru/lists/view/5014//01.03.2022-y.da chop etilgan](https://president.uz/ru/lists/view/5014//01.03.2022-y.da%20chop%20etilgan)

yondashuv oliy ta'lim tizimini hozirda mavjud bo'lgan, shuningdek, ayrim yangi, ayniqsa, moliyalashtirish masalalarida quyidagi tamoyillarga asoslangan holda qurish va faoliyat yuritishini taqozo etadi.

Muallifning fikricha, oliy ma'lumot, shuningdek, umumiy ta'lim hamma uchun mavjud bo'lishi kerak va bepul bo'lishi kerak, chunki oliy ma'lumotli ishchilar ko'proq daromad olishadi va ishini yo'qotish ehtimoli kamayadi. Xususiy ta'lim (umuman, xususiy tashkilot)ga daromad olish va uning o'sishi maqsadlari, davlat (davlat tashkiloti) uchun – kelajak uchun ishlash, aholi ehtiyojlarini qondirish, ta'lim darajasi va sifatini oshirish xosdir.

Ishda muallif iqtisodiyot tarmoqlari xo'jalik boshqaruvi organlari (kafedra oliy o'quv yurtlari) tasarrufidagi oliy o'quv yurtlarini taqsimlash va bepul ta'lim olish uchun kvotalar ajratishni taklif qiladi. O'rta maxsus, kasb-hunar, shuningdek oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari ushbu ta'lim muassasalari mutasaddi vazirliklari va idoralarining taklifi asosida Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan kelishilgan holda Bandlik va kambag'allikni qisqartirish vazirligi bilan birga tasdiqlanishi kerak.


Vazirliklar va idoralar tarmoq bozorini tahlil qilganda davlat dasturlarini amalga oshirish uchun zarur kadrlar (kasbi, mutaxassisligi va talab qilinadigan ta'lim darajasi bo'yicha) bo'yicha buyurtmani mustaqil ravishda shakllantirishi va oliy ta'lim muassasalari o'rtasida tanlov asosida bepul ta'lim olish uchun kvotalar ajratishi kerak. Iqtisodiy rivojlanish va kambag'allikni qisqartirish vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda har bir davlat oliy ta'lim muassasasi uchun davlat granti asosidagi davlat buyurtmasi parametrlari loyihasini har yili shakllantirib, ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari kesimida Davlat komissiyasiga ko'rib chiqish uchun kiritishi zarur (2-rasm).

Iqtisodiyot va moliya vazirligi moliyalashtirishni xo'jalik boshqaruvi organlariga yo'naltirishi, ular esa, o'z navbatida, oliy o'quv yurtlari/kollejlarga o'zlariga kerakli kadrlar tayyorlash uchun haq to'laydi va agar oliy o'quv yurtlaridan qayta tayyorlashni talab qilish zarurati tug'ilsa, ularni tayyorlash sifatini, bitiruvchi yoki uning o'qishi uchun ajratilgan mablag'larni qaytarishni nazorat qiladi. Ushbu taklif natijasida har bir ta'lim muassasasi bo'yicha byudjet xarajatlari hajmining asosligiga erishiladi, shuningdek, oliy o'quv yurtlari moliyalashtirish va ularning reytingi (tender prototipi bo'yicha) bo'yicha o'zaro raqobatlashadi, kadrlar tayyorlash sifati yaxshilanadi).

Iqtisodiyot va moliya vazirligi Bandlik va kambag'allikni qisqartirish vazirligi bilan birgalikda pulli ta'lim (kontrakt asosida) uchun ajratilgan kvotalar hisobidan qo'shimcha ishga qabul qilish foizini belgilashi kerak. Bu foiz bepul ta'lim uchun ajratilgan kvotalar miqdorining yarmidan oshmasligi kerak.

Bu inklyuziv ta'limni rivojlantirish imkonini beradi – abituriyentning moliyaviy ahvolidan qat'i nazar, tanlov asosida hamma uchun teng imkoniyatlar; bu tamoyil Yangi O'zbekistonni "farovonlik davlati" tamoyili asosida qurish imkonini beradi. Prezidentimiz o'z murojaatida ta'kidlaganidek: "Ijtimoiy davlat – bu, eng avvalo, odamlarga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun teng

imkoniyatlar va ularning munosib hayot kechirishi, kambag'allikni kamaytirishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish demakdir"⁵⁶.



2-rasm. Kadrlar tayyorlash uchun kvotalar ajratish va moliyalashtirish sxemasi⁵⁷

O'z navbatida, abituriyentlar grant asosida o'qishga kirish va o'qishni tamomlagach ishga joylashish uchun imtihonlarga alohida mas'uliyat bilan yondashadilar. Bunday holatda, agar to'liq bartaraf etilmasa ham, mehnat bozorida talab va taklifni muvozanatlash orqali ishsizlikni sezilarli darajada kamaytirish va oliy ta'lim va umuman, inson kapitalidan ko'proq daromad olish mumkin.

Kambag'allikni qisqartirish masalalarida "yashash minimum" va "iste'mol savatining eng kam to'plami" kabi me'yorlarni ishlab chiqish va qonun darajasida qabul qilish muhim ahamiyatga ega. Shunga muvofiq, ushbu standartlarni indeksatsiya qilish tartibini tasdiqlash qonun bilan belgilanadi.

Tasdiqlangan eng kam iste'mol savati, yashash uchun eng kam ish haqi va aholining normal ishlashi uchun zarur oziq-ovqat mahsulotlarining minimal to'plami yo'qligi sababli muallif Rossiya Federatsiyasining mavjud

⁵⁶O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrda Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi <https://president.uz/ru/lists/view/5774>

⁵⁷ Muallif ishlanmasi

metodologiyasini qo‘llagan va minimal iste‘mol savatining narxini hisoblab chiqqan. O‘zbekiston Respublikasi aholisining asosiy ijtimoiy-demografik guruhlari (7-jadval), mahsulotlarning ozgina ro‘yxatini o‘zgartirib, masalan, cho‘chqa go‘shini, shuningdek, ziravorlarni chiqarib tashlash orqali parranda go‘shini iste‘mol qilish hajmini oshirdi.

7-jadvalga ko‘ra, bir ishchiga to‘liq iste‘mol savatchasining narxi oyiga 1 371 152 so‘m, pensioner va bir bolaga mos ravishda 1 192 885 so‘m, 1 362 683 so‘mni tashkil etdi. Holbuki, eng kam ish haqi 920 000 so‘m, eng kam pensiya miqdori esa 633 000 so‘m. Oilani kam ta‘minlangan deb e‘tirof etishda qo‘llaniladigan oylik jon boshiga o‘rtacha daromad mezoni esa har bir kishi uchun oyiga 498 ming so‘mni tashkil etadi.

Iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyatlari federatsiyasi tomonidan 2020-yil yakuniga ko‘ra, statistik ma‘lumotlar, jahon tajribasi va aholining ijtimoiy so‘rovi usulida o‘tkazilgan test tadqiqotlari natijalarini hisobga olgan holda O‘zbekistondagi iste‘mol savatchasi, o‘rtacha mehnatga layoqatli fuqaroning bir oy davomida iste‘mol qilgan tovar va xizmatlarini ham hisoblab chiqildi. Uning hisob-kitoblariga ko‘ra, iste‘mol savati taxminan 2 million 157 ming so‘m. Bu uning qaramog‘idagi shaxslarni hisobga olmagan holda, 1 ishchiga to‘g‘ri keluvchi iste‘mol savatining yig‘indisidir (o‘rtacha, ulardan kamida 2 tasi mavjud)⁵⁸.

7-jadval

O‘zbekiston Respublikasi aholisining asosiy ijtimoiy-demografik guruhlari uchun oziq-ovqat mahsulotlarining minimal to‘plami⁵⁹

Nomi	1 kishi uchun yiliga fizik ko‘rinishda talab qilinadigan iste‘mol miqdori (kg) 1 kg uchun narx (so‘m)			1 kg uchun narx (so‘m) ⁶⁰	Yiliga 1 kishi uchun pul ko‘rinishida (so‘m) talab qilinadigan iste‘mol miqdori		
	Mehnatga layoqatli aholi	Pensionerlar	Bolalar		Mehnatga layoqatli aholi	Pensionerlar	Bolalar
Non mahsulotlari, jami, (un hisobida), shu jumladan	126,5	98,2	77,6		897 887	702 951	553 724
dukkaklilar	6	5	3	7 146	35 730	35 730	21 438
un	6	6	5	7 146	42 875	42 875	35 729
guruch	3	3	4	7 146	21 438	21 438	28 584
boshqa donlar (grechka)	5,5	5	6	7 146	39 303	35 730	42 876
bug‘doy noni	68,9	65	48,3	5 245	361 392	340 936	253 341

⁵⁸<https://www.gazeta.uz/ru/2021/02/03/consumer-basket/ma'lumotlari>.

<https://istemol.uz/ru/archives/5783> // <https://www.gazeta.uz/ru/2021/12/07/poverty/> // murojaat sanasi 06.06.22-y.

⁵⁹ Rossiya Federatsiyasining iste‘mol savatidagi mahsulotlar to‘plamiga asoslangan muallif ishlanmasi

⁶⁰ 2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasida dehqon bozorlari va chakana savdo do‘konlarida ayrim turdagi tovarlarning o‘rtacha narxlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma‘lumotlari <https://api.stat.uz/api/v1.0/data/dehqon-bozorlari-va-dokonlardagi-ayrim-tovarlari?lang=ru&format=xlsx>

* HAVAS savdo do‘konidagi mahalliy mahsulotlarning minimal narxlari, 24.02.2023-yil

javdar noni	68,9	35	25,2	4 831	332 835	169 074	121 734
makaron	9	8	7	7 146	64 314	57 168	50 022
Kartoshka	100,4	80	88,1	4 205	422 207	336 420	370 482
Sabzavotlar va sabzavotlar - jami, shu jumladan:	114,6	98	112,5		701 506	604 925	742 333
yangi va tuzlangan karam	43,5	36	35,2	3 752	163 203	135 064	132 063
yangi bodring va pomidor	5	4	12,6	10 847	54 235	43 388	136 672
sabzi	43,5	38	42,6	3 845	167 239	146 093	163 778
boshqa sabzavotlar	22,6	20	22,1	14 019	316 829	280 380	309 820
Yangi uzilgan mevalar	60	45	118,1	10 196	611 760	458 820	1 204 148
Shakar va qandolat mahsulotlari - jami, (shakar jihatidan)	23,8	21,2	21,8		283 478	252 522	259 667
shu jumladan	22,6	20	18,7	11 906	269 072	238 116	222 639
shakar	1	1	3,5	5 477	5 477	5 477	19 169
pechenye	1	1	2	8 930	8 930	8 930	17 859
pechenye	58,6	54	44		2 407 333	2 201 890	1 866 579
mol go'shti	20,5	19	17,6	66 371	1 360 610	1 261 053	1 168 134
qo'y go'shti	1,6	1	0,5	69 723	111 557	69 723	34 861
parranda go'shti	36,5	34	25,9	25 621	935 166	871 114	663 584
Baliq mahsulotlari-jami	18,5	16	18,6	28 705	531 048	459 285	533 919
Sut va sut mahsulotlari - jami (sut hisobida)	290	257,8	360,7		1 844 264	1 634 877	2 282 248
shu jumladan:	120	105	137,4	761 082	665 946	871 438	761 082
sut, kefir	2	2	3	77 626	77 626	116 439	77 626
qatiq	3,3	3	5,5	433 222	393 838	722 037	433 222
sariyog'	14	12	14	355 152	304 416	355 152	355 152
tvorog	4,5	4	4,5	217 182	193 050	217 182	217 182
Pishloq (Tuxum dona)	210	200	201	227 182	216 364	217 446	227 182
Pishloq	1,5	2	0,5	63 750	85 000	21 250	63 750
Margarin*	9,5	8	4,5	195 531	164 658	92 620	195 531
O'simlik yog'i	3,7	3	2,4	7 215	5 850	4 680	7 215
O'simlik yog'i	0,5	0,5	0,4	33 750	33 750	27 000	33 750
Yillik oziq-ovqat narxi					8 226 911	7 157 312	8 176 095
Oylik oziq-ovqat narxi					685 576	596 443	681 341
Nooziq-ovqat tovarlari narxi					342 788	298 221	340 671
Xizmatlar narxi (oziq-ovqat narxining 50%) oyiga					342 788	298 221	340 671
Oyiga umuman iste'mol savatining narxi					1 371 152	1 192 885	1 362 683

Muallif eng kam ish haqi tushunchasiga o'zgartirish kiritishni taklif qiladi: Eng kam ish haqi (EKIQ)⁶⁰ – xodimning sarflangan jismoniy va ma'naviy qobiliyatlarini hayotni ta'minlashning minimal darajasida ko'paytirish zarur bo'lgan ish kuchi uchun to'lov.

Xodimning maoshi nafaqat uning tirikchiligini, balki qaramog'idagilarni ham ta'minlaydi, keyin eng kam ish haqi oiladagi bolalar soniga qarab tartiblanishi kerak. O'zbekiston Respublikasida qaramog'ida bo'lganlar soni muallif hisob-

⁶⁰ Muallig ishlanmasi

kitoblarimiz bo'yicha 2022-yilda 1,7 nafarni tashkil etadi – 0 yoshdan 15 yoshgacha bo'lganlar soni rasmiy sektorda band bo'lganlar soniga bo'lingan. O'zbekistonda 0 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan aholi soni 2022-yilda 10,517 million kishini⁶¹, rasmiy sektorda band bo'lganlar esa 2022-yilning birinchi yarmida 6,16 million kishini tashkil qildi⁶². Shunday qilib, EKIQ quyidagicha bo'lishi kerak:

$$1\ 371\ 152 + 1\ 362\ 683 \cdot 1,7 = 3\ 687\ 713 \text{ so'm, oyiga.}$$

Bu o'zgarishlar va eng kam oylik ish haqining, qaramog'ida bo'lgan shaxslarni hisobga olgan holda oshirilishi ishchilarning jismoniy va ma'naviy qobiliyatlarini tiklash, shuningdek, farzandlarining kelajakdagi inson kapitalini shakllantirish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi milliy iste'mol savatchasini ishlab chiqish va undan kelib chiqib, yashash uchun zarur bo'lgan minimal ish haqini qayta hisoblashi zarur.

Pensiyalarni ko'paytirish va ularning miqdorini hisoblangan iste'mol savatchasi miqdoriga yetkazish (yoki hech bo'lmaganda yaqinlashish) masalalarida muallif jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini 12 foizdan 6 foizga kamaytirish hisobiga pensiya jamg'armasiga to'lanadigan badallarni amaldagi 1 foizdan 7 foizga oshirish va noqonuniy ishga joylashish ustidan nazoratni kuchaytirishni taklif qiladi. 8-jadvalda pensiya jamg'armasi tushumlaridagi o'zgarishlar hisoblab chiqilgan va ko'rsatilgan.

Mavjud ma'lumotlarga ko'ra, 2021-yilda 4,7 million nafar aholi va korxonalaridan iborat Pensiya jamg'armasining oylik daromadlari 2,1 trillion so'mni, 4,2 million nafar pensionerning oylik xarajatlari (to'lovlari) esa 3,04 trillion so'mni tashkil etdi⁶³. 2021-yilda Pensiya jamg'armasiga davlat byudjetidan 9,1 trln. so'm (oyiga 0,75 trln. so'm) transfertlar (subsidiyalar) ajratilgan, 2021-yilda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha byudjet daromadlari esa 18,9 trln. so'mni tashkil qilgan⁶⁴.

Pensiya badallarini amaldagi 1 %dan 7 %ga oshirish bilan u pensiya jamg'armasini oyiga 0,78 trillion so'mga to'ldiradi, bu yiliga 9,38 trillion so'mni tashkil etadi. Bunda 2021-yilda davlat byudjetidan pensiya jamg'armasiga 9,1 trln. so'm ajratilgan⁶⁵. Bunday o'zgarishlar (pensiya badallarining 7 %ga oshirilishi va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining 6 %ga kamayishi) davlat byudjetiga jiddiy o'zgarishlar olib kelmaydi. Ammo ular noqonuniy bandlikni qonuniylashtirishga hissa qo'shishi mumkin, chunki ishchilar daromadlaridan soliqning katta qismi pensiya jamg'armasiga tushishini tushunadilar.

⁶¹O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari

⁶²O'zbekiston Respublikasi bandlik va kambag'allikni qisqartirish vazirligi ma'lumotlari. // <https://t.me/mehnatvazirligi/10496> // <https://www.gazeta.uz/ru/2022/07/20/unemployment/>

⁶³O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 25-dekabrda O'RQ-657-son "O'zbekiston Respublikasining 2021-yilgi Davlat byudjeti to'g'risida"gi qonuni.

⁶⁴2021-yilgi Davlat byudjetining ijrosi. O'zbekiston Respublikasining Ochiq byudjet portalidan olingan ma'lumotlar // <https://www.openbudget.uz/ru/incomesView>

⁶⁵O'sha joyda

Eng kam ish haqi oshishi bilan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va pensiya badallari bo'yicha daromadlar ko'payadi, bu esa eng kam pensiya miqdorini hisoblangan yashash minimumidan oshirishga yordam beradi.

8-jadval

Turli pensiya badallari bo'yicha byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga tushumlar hisob-kitoblari⁶⁶

Shaxsiy daromad solig'ini to'lovchilar soni	Ulardan 4,7 million kishi: 1,9 million kishi (41%) davlat sektori xodimlari 2,8 million kishi (49%) byudjetdan tashqari soha xodimlari
Pensionerlar soni	4,2 mln.kishi
O'rtacha oylik ish haqi	2,78 mln.so'm
O'rtacha oylik pensiya	0,924780 mln.. so'm
Jismoniy shaxslarning pensiya badallari	1 %
Yuridik shaxslarning ijtimoiy solig'i	byudjet sektori 25 % byudjetdan tashqari sektor 12 %
Pensiya jamg'armasiga davlat byudjetidan ajratiladigan subsidiyalar	yiliga 9,1 trillion so'm (oyiga 0,75 trillion so'm)
To'langan pensiyalar miqdori	yiliga 36,5 trillion so'm (oyiga 3,04 trillion so'm)
Pensiya badallari oyiga 1%	O'rtacha oylik ish haqi•PIT to'lovchilar soni •Pensiya jamg'armasiga ajratmalar foizi + O'rtacha oylik ish haqi•xodimlar soni · yuridik shaxslar uchun ijtimoiy soliq ulushi (2,78 mln so'm • 4,7 mln kishi • 1%) + (2,78 mln so'm • 1,9 mln kishi • 25%) + (2,78 mln so'm • 2,8 mln kishi • 12%)= 2 404 005 million so'm (2,4 trln. so'm)
Pensiya badallari oyiga 7%	(2,78 mln. so'm • 4,7 mln. kishi • 7%) + (2,78 mln. so'm • 1,9 mln. kishi • 25%) + (2,78 mln. so'm • 2,8 mln. Kishi•12%) = 3 187 965 million so'm (3,19 trln. so'm)
JSHDS chegirmalari 6 %	2,78 mln so'm • 4,7 mln kishi • 6% = 783 960 mln so'm (0,79 trln. so'm) oyiga (yiliga 9,48 trln. so'm)

XULOSA

Ilmiy tadqiqot va tahlillar natijasida quyidagi xulosa va takliflar ishlab chiqildi:

1. "Inson kapitali" tushunchasini tug'ma, shakllangan va to'plangan bilim, ko'nikma, qobiliyat va salomatlikka ega ishchi kuchi sifatida yoritib berishga asoslangan yondashuv ilmiy asoslangan bo'lib, ulardan mehnat jarayonida foydalanish o'z egasiga daromad va umuman mamlakat iqtisodiyoti korinishida ma'lum bir foyda keltiradi.

⁶⁶O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining "2021-yilgi davlat budjeti daromadlari ijrosining dastlabki yakunlari"ga asosan mualliflik ishlanmasi https://www.mf.uz/media/file/state-budget/2021/prevd_doxodi_2021.pdf

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi ma'lumotlari https://pfru.uz/uz_Cyrl/pages/nafaa-oluvchilar-soni-2021-yil-1-yanvar-holatiga

Davlat soliq qo'mitasi matbuot xizmati ma'lumotlari <https://t.me/soliqnews/8810>

O'zbekiston Respublikasining Ochiq byudjet portalidan olingan ma'lumotlar. 2021-yilgi davlat byudjeti xarajatlarining ijrosi. // <https://www.openbudget.uz/ru/outcomesView/>

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 25-dekabrda O'RQ-657-son "O'zbekiston Respublikasining 2021-yilgi Davlat byudjeti to'g'risida"gi qonuni.

2. Inson kapitalini uning iqtisodiy tizimdagi ishtiroki belgilari: uning kelib chiqishi, shakllanishi (passiv ishtirok), mehnat faoliyati (faol ishtirok), pensiyaga chiqish davri (mehnatdan keyingi faoliyat)ga ko'ra tasniflash taklifi asoslandi.

3. Maktabgacha ta'limning past darajada qamrab olinishi O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi qonuni ijro etilmayotganligidan dalolat beradi. 1-6 yoshli bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olishni kuchaytirish zarur. Bu bir vaqtning o'zida ikkita muammoni – bolalarni erta rivojlanish bilan qamrab olish, shuningdek, gender tengligi – ayollarning ishga chiqishi uchun imkoniyatlar yaratishga yordam beradi.

4. O'zbekistonda 2022-yilda aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi real yalpi daromad oyiga 1 331 607,17 so'mni tashkil etdi, bu kuniga 3,8 AQSh dollarini tashkil etadi, "Faqat kambag'al" xalqaro kambag'allik chegarasi esa kuniga 3,1 AQSh dollari, o'ta kambag'allik esa kuniga 1,9 AQSh dollari qilib belgilangan. Shu bilan birga, mamlakatimizning turli hududlarida aholining bir kunlik real daromadi kuniga 2,8 AQSh dollarini tashkil etadi.

5. Xotin-qizlar bandligini oshirish uchun barcha bolali ayollar uchun 6 soatlik ish kunini bolalarining yoshidan qat'i nazar 10:00 dan 17:00 gacha joriy etish zarur, chunki ayollar asosan uy yumushlari va bolalarni tarbiyalash bilan shug'ullanadilar. Hukumat 4t oy davomida bir vaqtning o'zida to'lanadigan 1,99 million so'm miqdoridagi nafaqa miqdorini qayta ko'rib chiqishi, shuningdek, gender tengligini ta'minlash uchun barcha homilador ayollarga bir muddatga kamida 6 oy ikki baravar (ona va bola uchun) haq to'lashni boshlashi kerak.

6. Ta'lim sifatini oshirish, mehnat bozorini kasb va mutaxassisliklar bo'yicha muvozanatlash, aholi bandligini oshirish va inson kapitalini ro'yobga chiqarish maqsadida kadrlar tayyorlash tizimini o'zgartirish bo'yicha taklif ishlab chiqildi.

7. Kambag'allikni qisqartirish masalalarida "yashash minimumi" va "iste'mol savatining eng kam to'plami" singari me'yorlarni ishlab chiqish va qonun darajasida qabul qilish muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi milliy iste'mol savatchasini ishlab chiqish va undan kelib chiqib, yashash uchun zarur bo'lgan minimal ish haqi miqdorini qayta hisoblab chiqishi zarur. Muallif tomonidan Rossiya Federatsiyasi metodologiyasi bo'yicha hisoblangan iste'mol savati narxi bir ishchi uchun oyiga 1 371 152 so'mni, bitta pensioner va bola uchun mos ravishda 1 192 885 so'm, 1 362 683 so'mni tashkil etdi.

8. Nazariy-uslubiy yondashuvga ko'ra ish beruvchi tomonidan ishchining muayyan vaqt (soat, kun, hafta, oy, yil) birligidagi mehnati uchun qonunan to'lanishi majbur bo'lgan "eng kam ish haqi" (EKIH) tushunchasi inson hayotini minimal darajada ta'minlay olishi uchun ishchining aqliy va jismoniy jihatdan sarflagan energiyasini qoplash uchun yetadigan minimal miqdordagi to'lov nuqtai-nazaridan takomillashtirilgan.

9. Pensiyalarni oshirish va ularning miqdorini hisoblangan iste'mol savatchasi miqdoriga (yoki hech bo'lmaganda taxminan) yetkazish maqsadida muallif jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini 12 %dan 6 %ga pasaytirish hisobiga pensiya jamg'armasiga to'lanadigan badallarni hozirgi 1 %dan 7 %ga oshirish va noqonuniy bandlik ustidan nazoratni kuchaytirishni taklif qiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.01.2021.I.16.03
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ЭКОНОМИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ЦЕНТР «НАУЧНЫЕ ОСНОВЫ И
ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА» ПРИ ТГЭУ**

ХОЛБАЕВА САБИНА РУСТАМОВНА

**НАУЧНЫЕ ОСНОВЫ ФУНКЦИОНИРОВАНИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО
КАПИТАЛА В ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СИСТЕМЕ**

08.00.01 – Экономическая теория

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии по экономическим наукам (PhD)**

Ташкент – 2023

Тема диссертации доктора философии по экономическим наукам (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией за номером B2021.2.Phd/Iqt1650

Диссертация выполнена в Научно-исследовательском центре «Научные основы и проблемы развития экономики Узбекистана» при ТГЭУ.

Автореферат диссертации на трёх (узбекский, русский, английский (резюме)) языках размещён на веб-странице Научного совета (www.tsue.uz) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net.uz).

Научный руководитель: Усманов Анвар Саидмахмудович
доктор экономических наук, профессор

Официальные оппоненты: Расулев Алишер Файзиевич
доктор экономических наук, профессор

Тожибоева Дилором
доктор экономических наук, профессор

Ведущая организация: Самаркандский государственный университет

Защита диссертации состоится «05» 11 2023 года в 14⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.01.2021.1.16.03 по присуждению учёных степеней при Ташкентском государственном экономическом университете. Адрес: 100066, г. Ташкент, улица Ислама Каримова, дом 49. Тел.: (99871) 239-01-49; факс: (99871) 2326992; e-mail: info@tsue.uz

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного экономического университета (зарегистрировано за номером 1357). Адрес: 100066, г. Ташкент, улица Ислама Каримова, дом 49. Тел.: (99871) 239-01-49; факс: (99871) 232-69-92.

Автореферат диссертации разослан «24» 10 2023 года
(Реестр протокола рассылки № 43 от «24» 10 2023 года)



С.К. Худойкулов

Председатель научного совета по присуждению учёных степеней,
д.э.н., профессор

Б.Д. Хажиев

Учёный секретарь научного совета по присуждению учёных степеней,
к.э.н., доцент

У.В. Гафуров

Председатель научного семинара при научном совете по присуждению учёных степеней,
д.э.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Сегодня в мировой экономике сформировался новый тип экономического роста на базе использования знаний, человеческого капитала и инноваций как важнейших ресурсов. Национальное богатство развитых стран только на 5% составляют природные ресурсы, на 18% физический (производственный) капитал, а основное место 77% занимают знания и умение ими распорядиться¹, то есть человеческий капитал. Различия в человеческом капитале определяют различия в уровне конкурентоспособности экономики страны на мировом рынке, благосостояния населения и в целом человеческого развития, в частности разницы в доходах от 10 % до 30 % на душу населения по странам объясняется именно человеческим капиталом². На смену индустриальной экономике, пришла экономика знаний, главенствующее значение в которой приобрел интеллектуальный, креативный труд, а рабочая сила преобразилась в капитал, приобрела форму человеческого капитала.

Мировыми научно-исследовательскими институтами особое внимание уделяется исследованиям посвященным вопросам человеческого капитала. Определение роли человеческого капитала в социально-экономическом развитии общества, изучение методологических подходов к оценке человеческого капитала, исследование эффективных инвестиций в развитие человеческого капитала, а также вопросы развития человеческого капитала в условиях цифровизации экономики являются приоритетными направлениями исследования в этой области.

Успешная реализация стратегических задач, поставленных Президентом Республики Узбекистан до 2030 года, невозможно будет достичь без развития и реализации человеческого капитала. Поэтому в процессе построения Нового Узбекистана большое внимание придается инвестициям в человеческий капитал. «... нам прежде всего необходимо воспитать кадры новой формации, выступающие инициаторами реформ, обладающие стратегическим видением, глубокими знаниями и высокой квалификацией. Именно поэтому мы начали реформирование всех звеньев образования – от дошкольного до высшего. Наука и просвещение имеют первостепенное значение для повышения интеллектуального и духовного потенциала не только молодежи, но и всего нашего общества»³. Развитие человеческого капитала, улучшение качества всех звеньев образования как его центрального звена откроют возможности преодоления экономического отставания Республики Узбекистан, где в настоящее время существует низкое использование человеческого капитала и трудового потенциала.

¹ Колос Е. А. Генезис формирования экономики знаний страны на основе развития человеческого капитала // Экономика Профессия Бизнес. 2016. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/genezis-formirovaniya-ekonomiki-znaniy-strany-na-osnove-razvitiya-chelovecheskogo-kapitala> (дата обращения: 06.07.2022).

² World Bank Group. Human Capital: A Project for the World, 2018. October, 13. Development Committee Meeting. <https://www.devcommittee.org/sites/www.devcommittee.org/files/download/Documents/>

³ Послание Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева Олий Мажлису <http://uza.uz/ru/politics/poslanie-prezidenta-respubliki-uzbekistan-shavkata-mirziyeev-25-01-2020>

«Повышение качества образования – единственно правильный путь развития Нового Узбекистана»⁴. Поэтому исследование проблем использования и эффективного функционирования человеческого капитала, системы подготовки кадров, повышение качества и эффективности образования является на сегодняшний день не просто актуальным, но выдвигается в разряд главнейших вопросов в структуре социально-экономических исследований.

Данная диссертационная работа в определенной степени служит выполнению задач, намеченных в указах Президента Республики Узбекистан №УП-60 «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022 — 2026 годы» от 28 января 2022 года, №УП-5712 «Об утверждении Концепции развития системы народного образования Республики Узбекистан до 2030 года» от 29 апреля 2019 года, №УП-5847 «Об утверждении концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года» от 8 октября 2019 года, № УП-87 «О мерах по дальнейшему ускорению работы по системной поддержке семьи и женщин» от 7 марта 2022 года, постановлении Сената Олий Мажлиса Республики Узбекистан №ПС-297 «Об утверждении стратегии достижения гендерного равенства в Республике Узбекистан до 2030 года» от 28 мая 2021 года, а также принятой Президентом Государственной программе на 2023 год «Год заботы о человеке и качественного образования», а также в других нормативно-правовых документах, относящихся к данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики Узбекистан I. «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

Степень изученности проблемы. Теория человеческого капитала в ее современном виде явилась закономерным результатом развития мировой экономической и философской мысли. Предпосылки возникновения теории человеческого капитала можно обнаружить в трудах У.Петти, А.Смита, Д.Рикардо, К.Маркса, Ж.Б.Сэя, Дж.Милль и других экономистов прошлых столетий⁵.

В начале 60-х годов XX века данная теория сформировалась как самостоятельное течение мировой экономической мысли в трудах известных зарубежных экономистов неоклассической школы – Т.Шульца, Г.Беккера,

⁴ Послание Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева Олий Мажлису и народу Узбекистана от 20.12.2022 <https://president.uz/ru/lists/view/5774>

⁵ Петти, В. Экономические и статистические работы. Т. I-II; перевод под ред. Смит М. Н. – Москва: Государственное социально-экономическое издательство. – 1940; Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. – М.: Соцэкгиз, 1956, Рикардо Д. Собрание сочинений. – СПб., 1908; М., 1955; Маркс К. Капитал / К. Маркс, Ф. Энгельс // Соч. – 2-е изд. - Т. 23.; Сэй Ж.Б. Трактат политической экономии / Ж.Б. Сэй. – М.: Изд-во К. Т. Солдатенкова, 1896; Милль Дж.С. Основы политической экономии. – М.: Прогресс, 1980. Т. 1.

